

TIKUVCHILIK SOHASIGA HUNARMANCHILIK AN'ANALARINI SAQLAB QOLISH VA ULARNI ZAMONAVIY DIZAYNDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Eshmuratovna Nilufar Xalbayevna

*Ishlab chiqarish talim
ustasi 1-texnikum o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada tikuvchilik sohasidagi hunarmandchilik an'analari va ularni zamonaviy dizaynda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada milliy naqshlar, matolar, kashtachilik texnikalari va etnik aksessuarlarni saqlash hamda ular asosida zamonaviy libos va aksessuarlar yaratish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, raqamli dizayn, 3D texnologiyalar va innovatsion usullar orqali milliy an'analarni yangicha talqin qilish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

KALIT SO'ZLAR: Tikuvchilik, hunarmandchilik, milliy an'ana, zamonaviy dizayn, naqsh, kashtachilik, mato, moda, innovatsiya, milliy brend, aksessuar, raqamli texnologiya.

ANNOTATION: This article analyzes the traditional craftsmanship in the field of tailoring and the possibilities of applying it in modern design. The study highlights ways to preserve national patterns, fabrics, embroidery techniques, and ethnic accessories, while creating contemporary clothing and accessories based on these traditions. It also examines opportunities to reinterpret traditional motifs using digital design, 3D technologies, and innovative methods.

KEYWORDS: Tailoring, craftsmanship, national tradition, modern design, pattern, embroidery, fabric, fashion, innovation, national brand, accessory, digital technology.

KIRISH

Tikuvchilik — kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak hamda uy-rozg'or buyumlarini tikish bilan bog'liq qadimiy kasb-hunar hisoblanadi. Tikuvchilikda qo'llanilgan asbob-uskunalar, materiallar va tikish texnikalari har bir davrda turli xalqlarning madaniy darajasi, iqlim sharoiti, ehtiyojlari, imkoniyati va urf-odatlariga ko'ra shakllanib borgan (qarang: Kiyim). Arxeologik tadqiqotlar natijasida dunyoning ko'plab hududlaridan topilgan tikuvchilik buyumlari, kiyimlar va uy anjomlari bu hunar juda qadimdan mavjud bo'lganini va o'ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega ekanini tasdiqlaydi. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda tikuv mahsulotlari asosan o'simlik tolalaridan to'qilgan matolardan tikilgan bo'lsa, chorvador xalqlarda ko'proq jun gazlamalar va teridan foydalanilgan. Tikuvchilik nafaqat kiyim tayyorlash, balki xalqning madaniyati, estetik qarashlari va hayot tarzini ifodalovchi qadimiy hunar

hisoblanadi. U asrlar davomida inson hayoti va urf-odatlarini aks ettirgan ijodiy faoliyat sifatida shakllangan. Hozirgi davrda global bozor, tez o'zgarayotgan moda tendensiyalari va yangi texnologiyalar hunarmandchilik an'analari yangi talqin bilan uyg'unlashtirishni talab qilmoqda. Shu bois, milliy tikuvchilik an'analari saqlanib, ularni zamonaviy dizayn bilan integratsiya qilish estetik va madaniy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada an'analarning ahamiyati, ularni saqlash yo'llari va zamonaviy modaga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Hunarmandchilik an'analari – milliy merosning muhim qismi. O'zbek tikuvchilik san'ati turli maktablarga ega bo'lgan, masalan, Buxoro zarduzi, Marg'ilon atlas-adras, Qo'qon do'pi tikish va Xorazm kashtachilik uslublari. Har bir hududning o'ziga xos naqshlari, rang uyg'unligi va tikish uslubi xalqning madaniyati va estetik didini ifodalaydi. Shu bois, har bir detal – ip tortishdan tortib naqsh yasashgacha – madaniy boylik sifatida qadrlanadi va ularni saqlash milliy o'zlikni asrashga xizmat qiladi. Zamonaviy tikuvchilikda an'anaviy elementlarni qo'llash bugungi bozor va xaridor talablariga javob beradi. Yosh avlod orasida milliylikka qiziqish oshib, o'z ildiziga qaytish istagi kuchaymoqda. Shu sababli milliy naqshlar, matolar va kashtachilik texnikalarini zamonaviy libos va aksessuar dizayniga kiritish kiyimga o'ziga xoslik beradi, hunarmandchilikni rag'batlantiradi va mahalliy brendlarni rivojlantiradi. An'anaviy elementlarni qo'llashning amaliy yo'llari sifatida naqsh va bezaklarni soddalashtirilgan shaklda libos va aksessuar dizayniga kiritish, mahalliy matolarni zamonaviy kesimlar bilan uyg'unlashtirish, kashtachilikni minimalist uslubda ishlatish va etnik aksessuarlarni kiyim bilan uyg'unlashtirish mumkin. Bu usullar milliy obrazni saqlagan holda libosni zamonaviy ko'rinishga olib keladi. Texnologik yangiliklar ham an'analarni saqlash va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. 3D-dizayn va raqamli modellashtirish naqshlarni raqamlashtirish va sinovdan o'tkazishga yordam beradi. Lazerli kesish murakkab bezaklarni aniq kesishga imkon yaratadi, ekologik matolar esa sifat va bardoshlikni oshiradi. Raqamli kashtachilik mashinalari esa hunarmandchilik motiflarini tez va sifatli tikishga sharoit yaratadi. Shu tarzda an'anaviy san'atni yo'qotmasdan, uni yangi shaklda davom ettirish mumkin. Hunarmandlar va dizaynerlar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Hunarmandlar an'analarni saqlasa, dizaynerlar ularni zamonaviylashtiradi. Bu hamkorlik yangi kolleksiyalar yaratish, yoshlar orasida hunarmandchilikka qiziqishni oshirish, mahalliy brendlarni rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Shu yo'l bilan milliy tikuvchilik global moda sahnasida o'z o'rnini topishi mumkin.

Xulosa

Tikuvchilik sohasida hunarmandchilik an'analari saqlash va ularni zamonaviy dizaynda tatbiq etish milliy madaniy merosni asrash va iqtisodiy imkoniyatlarni

kengaytirish uchun muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar, raqamli dizayn imkoniyatlari va yoshlar orasida milliylikka qiziqish an'analarning yangi shaklda rivojlanishiga zamin yaratmoqda. An'ana va innovatsiya uyg'unlashgan holda o'zbek tikuvchilik san'ati nafaqat milliy bozorda, balki xalqaro moda maydonida ham o'z o'rniga ega bo'lishi mumkin. Tikuvchilik sohasida hunarmandchilik an'alarini saqlash va ularni zamonaviy dizaynda tatbiq etish milliy madaniyatni asrash va iqtisodiy jihatdan foyda keltirishning muhim omilidir. Zamonaviy texnologiyalar va raqamli dizayn imkoniyatlari an'anaviy naqshlar va kashtachilik uslublarini yangi shaklda hayotga tatbiq etishga imkon beradi. Shu orqali milliy tikuvchilik nafaqat tarixiy meros sifatida saqlanib qoladi, balki global moda sanoatida ham o'z o'rnini topadi. Hunarmandlar va dizaynerlar hamkorligi esa yangi kolleksiyalar yaratish, yosh avlodni milliy san'atga jalb qilish va mahalliy brendlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Natijada an'ana va innovatsiya uyg'unlashgan holda tikuvchilik sohasining kelajagi yanada mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Қ.Х., Ғозибеков К. Инновационный менеджмент. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2019.
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982.
3. Друкер П. Бизнес и инновации. – М.: Вильямс, 2017.
4. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями. – М.: Экономика, 1989.
5. Rogers E. Diffusion of Innovations. – New York: Free Press, 2003.
6. Харрисон Ф. Технологические инновации и стратегическое управление. – СПб.: Питер, 2020.
7. Лапыгин Ю.Н. Инновационный менеджмент. – М.: ИНФРА-М, 2021.
8. Milliy hunarmandchilik bo'yicha ilmiy maqolalar va o'quv qo'llanmalar (O'zbekiston Respublikasi, 2010–2023 yillar).